



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENOH YEKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQRISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQRISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gopardjonovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	270
Shermatov Axror Abdixakimovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	275
Ergash Bobobekov	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	281
Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	285
Qurbonova Rahima Jamshedovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	302
Usmanova Zumrad Islamovna	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS	306
Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	



ANOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
Норкулов Суннатбек Алишерович	
О'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH



Kurbanov Baxodir Negmatullayevich

Toshkent xalqaro universiteti Yoshlar masalalari
va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori

bahodir5393478@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7965-7914

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimining amaldagi holati kompleks tahlil qilinib, uning asosiy muammolari yoritib berilgan. So'nggi yillarda oliy ta'lim qamrovi sezilarli darajada oshgani natijasida moliyalashtirish tizimiga qo'shimcha yuklama yuzaga kelgani, shu bilan birga mavjud moliyaviy mexanizmlarni zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot doirasida davlat budjeti mablag'lari, budjetdan tashqari manbalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda talaba kreditlash tizimining samaradorligi tahlil qilinadi.

Shuningdek, kreditlash tizimida daromadga bog'liq qaytarish mexanizmlarini kengroq joriy etish va ularni mehnat bozori talablariga yanada moslashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Germaniya, Janubiy Koreya, Finlyandiya va Avstraliya kabi davlatlar tajribasi asosida moliyalashtirishning samarali modellari o'rganiladi.

Natijada, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan kompleks moliyalashtirish modeli taklif etilib, u natijaga yo'naltirilgan budjet tizimini joriy etish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda talaba kreditlash tizimini yanada takomillashtirishni qamrab oladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, moliyalashtirish, budjet, talaba kreditlari, davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiy islohotlar, "O'zbekiston – 2030".

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the current state of higher education financing in Uzbekistan and examines its key challenges. It argues that the significant expansion of higher education enrollment in recent years has created additional pressure on the financing system, while existing financial mechanisms require further improvement in line with modern demands. The study analyzes state budget funding, extra-budgetary sources, public-private partnership mechanisms, and the effectiveness of the student loan system.

It also discusses the broader implementation of income-contingent repayment mechanisms and their further alignment with labor market requirements. Based on the experience of countries such as Germany, South Korea, Finland, and Australia, effective financing models are explored.

As a result, a comprehensive financing model adapted to the conditions of Uzbekistan is proposed, including the introduction of performance-based budgeting, diversification of funding sources, and further improvement of the student loan system.

Key words: higher education, financing, budget, student loans, public-private partnership, economic reforms, "Uzbekistan – 2030".



Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ современного состояния системы финансирования высших учебных заведений в Узбекистане и рассматриваются её ключевые проблемы. Обосновывается, что значительное расширение охвата высшим образованием в последние годы привело к дополнительной нагрузке на систему финансирования, при этом существующие финансовые механизмы нуждаются в дальнейшем совершенствовании в соответствии с современными требованиями. В рамках исследования анализируются государственное бюджетное финансирование, внебюджетные источники, механизмы государственно-частного партнёрства, а также эффективность системы студенческого кредитования.

Также рассматриваются вопросы более широкого внедрения механизмов возврата кредитов, зависящих от уровня доходов, и их дальнейшей адаптации к требованиям рынка труда. На основе опыта таких стран, как Германия, Южная Корея, Финляндия и Австралия, изучаются эффективные модели финансирования.

В результате предлагается комплексная модель финансирования, адаптированная к условиям Узбекистана, включающая внедрение результатно-ориентированного бюджетирования, диверсификацию источников финансирования и дальнейшее совершенствование системы студенческого кредитования.

Ключевые слова: высшее образование, финансирование, бюджет, студенческие кредиты, государственно-частное партнёрство, экономические реформы, «Узбекистан – 2030».

KIRISH

Oliy ta'lim milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion salohiyatni kuchaytirish va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalarini barqaror moliyalashtirishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [1].

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'limni rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar natijasida 2016-yilda 9 foizni tashkil etgan oliy ta'limga qamrov darajasi 2024-yilda 48 foizga yetdi [2]. Oliy ta'lim muassasalari soni esa 69 tadan 222 taga ko'paydi [3].

Ushbu jadal o'sish sharoitida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimining barqarorligi va samaradorligini yanada oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Talabalar soni 2015-yildagi 264,3 ming nafardan 2024-yilda 1 432,8 ming nafarga, ya'ni 5,4 barobarga oshgan [4]. Bu esa moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimining amaldagi holatini tahlil qilish, mavjud masalalarni aniqlash hamda xorijiy tajriba asosida samarali moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirish tizimi bo'yicha kompleks yondashuv asosida chuqur ilmiy tahlillarni yanada kengaytirish zarurati mavjud. Mavjud adabiyotlarda asosan mazkur masalaning alohida jihatlarini ko'rib chiqilgan [5]. Ushbu maqola oliy ta'limni moliyalashtirish tizimini yaxlit yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limni moliyalashtirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. OECD tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish manbalari sezilarli darajada farqlanadi. Jumladan, Belgiya, Polsha va Fransiyada xususiy moliyalashtirish ulushi 70 foizdan yuqori bo'lsa, Janubiy Koreya, Chili va Buyuk Britaniyada davlat mablag'lari muhim o'rin tutadi [6].

Psacharopoulos va Patrinos (2018) oliy ta'limga investitsiyalar qaytimi masalasini tahlil qilib, kadrlar sifati hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni asoslab bergan [7]. Johnstone (2004) tomonidan ishlab chiqilgan oliy ta'lim xarajatlarini "taqsimlash" (cost-sharing) nazariyasi esa hukumat, talabalar va xususiy sektor o'rtasida xarajatlarni muvozanatli taqsimlashning ilmiy asoslarini shakllantirdi [8].

Markaziy Osiyo mintaqasida oliy ta'limni moliyalashtirishga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida World Bank'ning 2021-yilgi hisoboti alohida ahamiyat kasb etadi [9]. Hisobotda mintaqa mamlakatlarida budjet imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, alternativ moliyalashtirish manbalarini jalb etish zarurligi ta'kidlangan.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi bo'yicha so'nggi yillardagi tadqiqotlar (Mirzaev, 2022; Toshmatov, 2023) asosan tizim strukturasi va reyting ko'rsatkichlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, moliyalashtirishning iqtisodiy modellari masalasiga nisbatan kamroq e'tibor berilgan [10]. Shu bois, ushbu tadqiqot mavjud ilmiy adabiyotlarni to'ldirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, monografik usul, tizimli yondashuv hamda hujjatlar tahlili kabi ilmiy usullardan foydalanilgan. Birlamchi ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risidagi qonunlari (2022–2024), Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari hamda Jahon banki hisobotlari asos qilib olingan.

Xalqaro tajribani o'rganishda Germaniya, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Singapur va Qozog'iston moliyalashtirish modellari tahlil qilingan. Taqqoslama moliyaviy tahlil uchun OECD'ning Education at a Glance hisobotlari hamda 2022–2024-yillardagi ma'lumotlar bazasidan asosiy manba sifatida foydalanilgan [11].

Ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida miqdoriy va sifatiy tahlil metodlari uyg'un holda qo'llanilgan. Olingan natijalar jadvallar va diagrammalar ko'rinishida ifodalangan. Tadqiqot 2024–2025-yillar davomida amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirish tizimining amaldagi holati. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 6 trillion 130 milliard so'm mablag' ajratildi. Bu ko'rsatkich 2023-yildagi 6 trillion so'mga nisbatan 2,2 foizga ko'pdir [12].

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimida talabalar sonining sezilarli darajada oshib borayotgani moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xususan, talabalar sonining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida bir talabaga to'g'ri keladigan xarajatlar hajmini barqaror saqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirish ko'rsatkichlari (2020–2024)

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Talabalar soni (ming nafar)	571,5	808,4	1 042,1	1 314,5	1 432,8
OTMlar soni	127	163	185	200	222
Vazirlikka ajratilgan budjet (trln so'm)	3,8	4,3	5,1	6,0	6,13
Ta'limga umumiy xarajatlar (trln so'm)	32,1	41,5	51,2	58,4	69,1
Ta'lim xarajatlarning YalMdagi ulushi (%)	5,2	5,5	5,7	5,9	5,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi hamda Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi (2024).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, budjet mablag'lari mutlaq miqdorda o'sib borayotgan bo'lsa-da, talabalar sonining yuqori sur'atlarda ortishi oliy ta'lim tizimida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalasining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shuningdek, ta'lim xarajatlarning YalMga nisbati 5,8–5,9 foiz darajasida saqlanib qolayotgani ushbu yo'nalishda investitsion imkoniyatlarni kengaytirish muhimligini ko'rsatadi [13].

Talaba kreditlash tizimining holati va rivojlantirish yo'nalishlari. O'zbekistonda talaba kreditlash tizimi tijorat banklari orqali ajratiladigan davlat subsidiyalangan kreditlari asosida faoliyat yuritadi. 2023-yilda foizsiz ta'lim kreditlari doirasida 137,4 ming nafar talabaga 1 trillion 548,6 milliard so'm mablag' ajratilgan [14]. Shu bilan birga, tizimni yanada takomillashtirishni talab etuvchi bir qator jihatlarni mavjud.

Birinchi, kreditlash tizimida mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan STEM va AKT yo'nalishlari bo'yicha rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarurati mavjud. Ikkinchi, ayollar kredit oluvchilarning 80 foizini tashkil etgan bo'lsa-da, ularning faqat 33 foizi STEM yo'nalishlarida tahsil olmoqda [2]. Bu esa kreditlash siyosatini iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan yanada uyg'unlashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Uchinchi, kreditlarni qaytarish mexanizmlarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, daromad darajasiga bog'liq to'lov tizimi (Income Contingent Repayment — ICR) amaliyotini joriy etish tizim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. To'rtinchi, subsidiya hajmining yildan-yilga ortib borayotgani kreditlash tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda [2].

Xalqaro tajriba tahlili. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida oliy ta'limni moliyalashtirish modellari uchta asosiy guruhga ajratildi:

1. davlat asosiy moliyalashtiruvchi sifatida faol ishtirok etadigan model (Germaniya, Finlyandiya, Norvegiya);
2. aralash moliyalashtirish modeli (Janubiy Koreya, Singapur, Avstraliya);
3. bozor mexanizmlariga keng tayanadigan model (AQSH, Buyuk Britaniya) (2-jadval).



2-jadval. Tanlangan mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish modellari

Mamlakat	Davlat ulushi (%)	Xususiy ulushi (%)	Asosiy mexanizm	Xususiyati
Germaniya	84	16	Budjet grantlari	Bepul ta'lim va yashash xarajatlari uchun kredit tizimi
Janubiy Koreya	47	53	Aralash model	Sanoat va universitetlar o'rtasidagi kuchli hamkorlik
Finlyandiya	96	4	To'liq budjet asosida moliyalashtirish	Yuqori sifat va ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlash
Singapur	65	35	Maqsadli grantlar	Iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan integratsiyalashgan
Avstraliya	42	58	HECS tizimi	Daromadga bog'liq kreditlarni qaytarish mexanizmi
Qozog'iston	55	45	Grant va kredit tizimi	Mintaqaviy islohotlar tajribasiga ega model

Manba: OECD'ning *Education at a Glance 2024* ma'lumotlari hamda *Frontiers in Education* (2023) nashri asosida tayyorlandi [6, 11].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli oliy ta'lim moliyalashtirish tizimlariga xos bir qator umumiy jihatlar mavjud. Jumladan, moliyalashtirish mexanizmlarining diversifikatsiyalashganligi, mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlik, ijtimoiy adolatni ta'minlovchi mexanizmlar (stipendiyalar va daromadga bog'liq kreditlar) hamda natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish (performance-based funding) tizimlari shular jumlasidandir [15].

O'zbekistonda moliyalashtirish tizimini rivojlantirish zarur bo'lgan jihatlar. O'tkazilgan tahlil asosida O'zbekiston oliy ta'limini moliyalashtirish tizimida takomillashtirishni talab etuvchi quyidagi jihatlar aniqlandi: moliyalashtirish manbalarining asosan budjet mablag'lariga tayanishi; moliyalashtirish mexanizmlarining natija ko'rsatkichlari (outcome indicators) bilan yetarli darajada bog'lanmaganligi; xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini kengaytirish zarurati; talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vositalarini yanada rivojlantirish ehtiyoji.

Shuningdek, OTMlarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish ularning innovatsion loyihalarni amalga oshirish va ilmiy faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Hozirgi kunda budjet mablag'larining 70 foizdan ortig'i ish haqi va kommunal xarajatlarga yo'naltirilayotgan bo'lsa, ilmiy tadqiqot va rivojlantirish ishlari uchun 5–7 foiz atrofida mablag' ajratilmoqda. Taqqoslash uchun, Janubiy Koreyada ushbu ko'rsatkich 25–30 foizni tashkil etadi [11].

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirish tizimini zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish muhimligini ko'rsatadi. Tavsiya etilayotgan kompleks moliyalashtirish modeli uchta asosiy yo'nalishni qamrab oladi: budjet moliyalashtirish samaradorligini oshirish, muqobil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish hamda talaba kreditlash tizimini modernizatsiya qilish.

Birinchi yo'nalish doirasida natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish (performance-based funding) tizimini joriy etish taklif etiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, OTMlarga ajratiladigan budjet mablag'lari nafaqat talabalar soniga, balki bitiruvchilarning bandlik darajasi, ilmiy nashrlar soni, patent va litsenziyalar, xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlar kabi natijalarga ham bog'liq bo'ladi. Mazkur mexanizm Janubiy Koreya va Avstraliya tajribasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, OTMlarda sifat va raqobatbardoshlikni rag'batlantirishga xizmat qiladi [6, 15].

Ikkinchi yo'nalish — muqobil moliyalashtirish tizimini rivojlantirish bo'lib, u uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

- davlat-xususiy sheriklik loyihalari asosida yangi o'quv binolari va laboratoriyalar qurilishi;
- OTMlar va sanoat korxonalarini o'rtasidagi hamkorlik asosida amaliy tadqiqotlarni moliyalashtirish;
- endowment (doimiy zaxira) fondlarini shakllantirish.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, endowment fondlari universitetlarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Harvard University fondi hajmi 50 milliard AQSH dollaridan oshadi [13].

Uchinchi yo'nalish talaba kreditlash tizimini takomillashtirish bilan bog'liq. Taklif etilayotgan model Australianing HECS (Higher Education Contribution Scheme) tajribasiga asoslanadi. Unga ko'ra, bitiruvchi ma'lum daromad chegarasiga (masalan, o'rtacha ish haqining 1,5 baravari darajasiga) yetmaguncha kredit to'lovlarini amalga oshirmaydi. Kreditlarni qaytarish jarayoni soliq tizimi orqali avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Shuningdek, STEM va AKT yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun kredit hajmini oshirish taklif etiladi [16].



Taklif etilayotgan kompleks modelni amalga oshirish natijasida 2030-yilga borib quyidagi natijalarga erishish mumkinligi prognoz qilinmoqda: oliy ta'limni moliyalashtirish hajmini YaIMning 7 foizigacha yetkazish; xususiy va xorijiy investitsiyalar ulushini hozirgi 15–20 foizdan 35 foizgacha oshirish; talabalarning 50 foizdan ortig'ini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan qamrab olish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirish tizimining amaldagi holati, uni rivojlantirish zarurati hamda takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha kompleks ilmiy tahlil natijalari bayon etildi. Asosiy xulosalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O'zbekistonda oliy ta'limga qamrov darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 2024-yilda 48 foizga yetgani tizimda sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, talabalar sonining 5,4 baravarga ortishi moliyalashtirish mexanizmlarini ushbu o'sish sur'atlariga mos ravishda yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ikkinchidan, amaldagi moliyalashtirish tizimida budget mablag'lariga yuqori darajada tayanish, natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlarini kengroq joriy etish zarurati hamda mehnat bozori bilan uzviy bog'liqlikni yanada kuchaytirish ehtiyoji mavjud. Shuningdek, kreditlash tizimida daromadga bog'liq qaytarish mexanizmlarini (Income Contingent Repayment — ICR) bosqichma-bosqich joriy etish kelgusida talabalarning moliyaviy yukini muvozanatlash va tizim barqarorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Uchinchidan, xalqaro tajriba, xususan, Janubiy Koreya, Avstraliya va Singapur modellari O'zbekiston uchun muhim amaliy yo'nalishlarni ko'rsatadi. Bular moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, natijaga yo'naltirilgan budget mexanizmini rivojlantirish, sanoat va universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda daromadga bog'liq kredit tizimini joriy etishdan iborat.

To'rtinchidan, taklif etilayotgan kompleks moliyalashtirish modeli "O'zbekiston — 2030" strategiyasining oliy ta'limga 50 foizlik qamrovni ta'minlash va YaIM hajmini ikki barobar oshirish kabi maqsadlariga erishishda mustahkam moliyaviy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, oliy ta'limni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, OTMLarda moliyaviy mustaqillikni bosqichma-bosqich kengaytirish, natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, talaba kreditlash tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda sanoat-universitet hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda alohida oliy ta'lim muassasalari kesimida moliyaviy samaradorlikni tahlil qilish hamda natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish modelini pilot tarzda tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi: barqaror rivojlanish yo'lida. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2023. — 248 b.
2. World Bank. Modernized Student Financing System to Expand Access to Education for 600,000 Young People in Uzbekistan. — Washington D.C.: World Bank Press Release, 2025. — Available at: [World Bank official website](#)
3. Uzbekistan. Education in Uzbekistan. — 2024. — Available at: [Wikipedia article](#)
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar soni, 2015–2025. — Toshkent: Statistika qo'mitasi, 2025. — Available at: [Stat.uz official website](#)
5. Toshmatov N.U. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilishning moliyaviy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. — 2023. — №3. — B. 45–58.
6. Alfarizi J., Frei M., He R. Public-private partnership as a mechanism of education management in the structure of the social and investment model of economic growth // *Frontiers in Education*. — 2023. — Vol. 8. — DOI: 10.3389/educ.2023.1132644
7. George Psacharopoulos, Harry Anthony Patrinos. Returns to Investment in Education: A Decennial Review of the Global Literature // *Education Economics*. — 2018. — Vol. 26, №5. — P. 445–458.
8. Johnstone D.B. The Economics and Politics of Cost Sharing in Higher Education: Comparative Perspectives // *Economics of Education Review*. — 2004. — Vol. 23, №4. — P. 403–410.
9. World Bank. Uzbekistan: Modernizing Higher Education for Economic Growth. — Washington D.C.: World Bank Group, 2021. — Report No. 147895-UZ.
10. Mirzaev A.T. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifat menejmenti // O'zbekiston Milliy universiteti axborotnomasi. — 2022. — №2. — B. 112–124.
11. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2024. — DOI: 10.1787/eag-2024-en
12. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 2024-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi qonun. — Toshkent, 2023. — Available at: [Moliya vazirligi rasmiy sayti](#)
13. The Borgen Project. Beyond the Blueprint: The Uzbekistan 2030 Strategy. — 2025. — Available at: [The Borgen Project official website](#)



14. Consulate of Uzbekistan in Aktau. Uzbekistan has set a goal to increase the level of youth enrollment in higher education to 50%. — 2024. — Available at: [Uzbekistan Consulate website](#)
15. OECD. The Financial Sustainability of Higher Education: How Do Governments Fund Higher Education Provision? — Paris: OECD Publishing, 2025. — DOI: 10.1787/f544ccfe-en
16. Bruce Chapman. Income Contingent Loans for Higher Education: International Reforms // Handbook of the Economics of Education. — Vol. 2. — Amsterdam: Elsevier, 2006. — P. 1435–1503.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>